



SOPOLLI MADANIYATI AHOLISI KUNDALIK TURMUSH TARZI:

OVQATLANISH RATSIONI, KASALLIK
VA JAROHATLAR (ANTROPOLOGIK,
ARXEOBOTANIK VA ARXEOZOOLOGIK
MANBALAR ASOSIDA)

Turdiyev J.,
tayanch doktorant



Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'tgan asrning 70-yillaridan to hozirga qadar arxeologik tadqiqotlar davomida qazib qo'lga kiritilgan Sopolli madaniyatining paleoantropologik, arxeobotanik va arxeozoologik manbalari ustida olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida aniqlangan aholining biologik va jismoniy holati, ularning kunlik ovqatlanish ratsioni, turli xildagi kasallik hamda jarohatlari haqida so'z yuritiladi. Qolaversa, odontologik tadqiqotlar asosida bronza davri aholisining ijtimoiy mashg'ulotlari, ularning tibbiy darajasi, oziq-ovqat iste'mol maxsulot turlari yoritilib berilgan. Maqolada yana chorvachilik yo'li bilan boqilgan xonaki va ovchilik kundalik mashg'ulotlari asosida ovlangan yovvoyi hayvonlarning odamlar hayotidagi o'rni, ularning insonlar oziq-zanjiridagi ahamiyati, shuningdek, yetishtirilgan donli ekinlarning kunlik taqsimoti kabi masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

paleoekonomika, skolioz, gaymarid, osteomielit, odontologiya, kareys, suli, tariq, qabr, ziroatchilik.

Kirish.

Albatta, aholi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini rekonstruksiya qilishda arxeologik manbalarining ahamiyati yuqori sanaladi. Ammo aholining biologik hamda jismoniy holati, ularning salomatlik masalalarini o'rganishda organik manbalarining o'rni yuqori hisoblanadi. Har turdagi arxeobotanik, arxeozoologik va antropologik topilmalar ko'pincha qadimgi davr odamlari haqida ma'lumot beruvchi birlamchi manbalar qatorida turadi. O'zbekistonning janubiy hududida eramizdan avvalgi 2-ming yillikda paydo bo'lgan, bronza davrining o'ziga xos arxeologik madaniyati bo'lgan Sopolli madaniyatini o'rganishda esa yuqorida ta'kidlangan manbalar arxeologik tadqiqotlarni yetarlicha boy ma'lumotlar bilan to'ldiradi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlangan keng ko'lamli tadqiqotlar, Sopolli madaniyatini o'rganishda hozirga qadar ilmiy asos bo'lib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mazkur madaniyatning biologik manbalari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, paleoantropologik manbalar Y.Zezenkova[14], T.Xodjayov[14;5], X.Xalilov[5;13], S.Mustafaqulov[12;18], X.Sarmiento-Bendezu[17;18], arxeozoologik manbalar B.Batirov[7], A.Batirov[8;9;10] hamda paleobotanik topilmalar esa N.Miller[20], R.Spengler[16], J.Sing[4] va boshqalar tomonidan izchil tadqiq etildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola yozilishida umum qabul qilingan tarixiy taxlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Ushbu maqolada dastlab aholining salomatligiga ta'sir etuvchi ovqatlanish ratsioni masalalarini ko'rib chiqamiz. Akademik A.Askarov[1;2;3] Sopollitepa yodgorligida arxeologik stasionar tadqiqotlar olib borib, aholisining yillik bug'doy yetishtirish potensialini ham ilmiy tadqiq etadi. Unga ko'ra olim, Marv vohasi tabiiy iqlimi bilan yurtimiz janubiy hududi iqlimi va ekinlar hosildorlik miqdorini taqqoslagan holda keltirib chiqargan. Arxeologning hisoblashicha, kunlik bug'doy iste'molini 350 gr miqdorida belgilanib, bir kishiga bir yilda o'rtacha 128 kg bug'doy sarflanadi. Paleodemografik tahlil asosida Sopollitepa aholisi har bir juft oilada 5-6 kishidan tashkil topadigan bo'lsa, umumiy aholi o'rtacha 230 kishini tashkil etadi. Shunda yuqorida ta'kidlanganidek, agar bir kishi bir kunda 350 gr bug'doy yeydigan bo'lsa, 1 yilda bir kishi 128 kg, 230 nafar aholi esa bir yilda 29 t bug'dor iste'mol qiladi. Shuningdek, kelasi yil ekin uchun urug'likka saqlangan bug'doy bilan hisoblanganda 35,5 t bug'doy (71 ga maydondan) zarur

rati bo'lgan. (1 oilaga 1,5 ga, 1 kishiga yillik 0,3 ga ekin maydoni to'g'ri kelgan) (3 qurilish davri paleodemografiyasi bo'yicha – 235 kishi nisbatida olindi)[2, b.147]. A.Askarov mazkur taxlilni paleoekonomik statistik usulida aniqlaydi. Bu borada keyingi tadqiqotlarda, albatta, kunlik aholi iste'mol bug'doyining kaloriya miqdorini aniqlash foydadan holi bo'lmaydi.

T.Xodjayovning odontologik taxlillariga ko'ra, sopollitepaliklarning qoziq tishlari katta emas va tishlar orasini tozalash kuzatilmaydi. Bundan ko'rinadiki, aholi asosan donli va sut mahsulotlari iste'mol qilgan. Bunga asoslanib A.Asqarov aholi jon boshiga kunlik 80 gr.dan bir kishiga go'sht mahsulotini miqdorini chiqargan[2, b.148].

Antropolog T.Xodjayov tomonidan odontologik taxlil uchun Sopollitadan 42 ta bosh suyagi tanlab olinib, ularning tishlari A.Zubov[11, b.173-174] usuli yordamida o'rganiladi. Unga ko'ra, Sopollitepa aholisi kesuvchi va qoziq tishlari 7 ballik yedirilish shkalasidan 1,63 ball, jag' va jag'oldi tishlarning yedirilish darajasi 6 ballik shkaladan 2,88 ballni tashkil etadi[14, b.61]. Bundan ko'rinib turibdiki, sopollitepaliklar asosan donli va sutli maxsulotlar iste'mol qilgan[1, b.133].

Qolaversa, bu fikrni qabrlardan topilgan ko'plab sopol buyumlar ichidagi arxeobotanik manbalar ham tasdiqlaydi. Xususan, Sopollitepadagi 1-qabr ochilib o'rganilganda, 3 ta vaza idish ichida bug'doydan bo'tqa yoki atalaga o'xshash ovqat qoldig'i va ko'za ichidan jiyda urug'lari topilgan. Sopollitepaning 1, 7, 14, 18, 22, 27 va 35 qabrlaridagi sopol idishlar ichidan saqlanib qolgan turli xildagi ovqat qoldiqlari topilgan. Bu esa Sopollitepa aholisi o'troq dehqonchilik bilan, asosan sun'iy sug'orishga asoslangan ziरोatchilik bilan shug'illanganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Yana ko'plab katta xum va zaxira sifatida saqlanib, ko'mirga o'xshab qolgan donli mahsulotlar: bug'doy, arpa, tariqni hamda hovoncha, keli, keli dasta, omoch va o'roqlar topilishi fikrimizni asoslaydi[1, b.130].

Sopollitepadan 1969-1970 yillar davomida 5500 dan ortiq xonaki va yovvoyi hayvon suyaklari topib o'rganildi. Shuningdek, 20 ta qabrdan uy hayvonlari suyaklari topilgan bo'lib, sigir, ho'kiz, qo'y, echki, cho'chqa, tuya, eshak va it kabilardir[7].

Suyak qoldiqlar shuni ko'rsatadiki, sopollitepaliklar asosan 6-14 oylik qo'zilarini istemol qilgan. Statistik taxlilga ko'ra, qo'y-echkilar eng ko'p iste'mol qilingan uy hayvonlari hisoblanib, keyingi o'rinlarni qoramol hamda cho'chqa, tuya egallaydi. Ammo qoramol ham sopollitepaliklarning kundalik sut mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim xo'jalik uy hayvoni hisoblangan. Buxoro ohusini ovlash ham xo'jalikda o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Bir tomondan Buxoro uhusi go'shti yuqori sifatli go'sht hisoblansa, ikkinchi tomondan uning shoxidan turli mehnat qurollari yasalgan. Uy hayvonlarini boqishdan tashqari yovvoyi hayvonlarni ovlash orqali ham go'sht mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj qondirilgan. Bundan tashqari go'sht mahsulot-

lariga bo'lgan talabni jayron, to'ng'iz, buqa(tur) kabi yovvoyi hayvonlarni ovlash orqali ham qondirishgan [1, b.132]. Xatto Jarqo'ton ibodatxonasidan o'tning yugani/so'lig'i topilishi[15], Jarqo'ton 3 dan ikki o'rkachli 5 yoshdagi tuya bosh suyagi topilishi[19, b.67] aholi kunlik oziq-ovqat masalalarini tadqiq etishda ko'pgina savollarni o'rta qo'yadi.

Xullas, Sopollitepaning 1, 6, 7, 8, 10, 14, 18, 22, 23, 27, 35, 46 qabrlaridan topilgan sopol idishlari ichida qoldig'i saqlanib qolgan quyuq va suyuq ovqatlardan manzilgoh aholisining ovqatlanish ratsionini rekonstruksiya qilish mumkin. Xususan, 6, 7, 8, 14, 18, 22, 23, 27, 35 qabrlardan unli bo'tqa, tariqli bo'tqa, atala, go'shtli sho'rva ovqat qoldiqlari va izlari aniqlangan. Asosiy ovqatlar bug'doyli bo'tqa, unli bo'tqa va go'shtli sho'rva hisoblangan. Shubhasiz mazkur ovqatlarni tayyorlashda sut birlamchi maxsuloti vazifasini o'tagan. 1 qabrdan bug'doy, tariq bilan birga jiyda urug'i topilishi esa qandaydir bo'zaga o'xshash ichimlik tayyorlanganidan dalolat beradi. Bu esa bronza davrida vinoga o'xshash ichimlik tayyorlovchilari uchun jiyda o'simligi ham begona bo'lmaganini ko'rsatadi[1, b.133].

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, biz albatta Sopolli madaniyati aholisining turli xildagi madaniy o'simliklarni yetishtirganini, ushbu o'simliklarning aholi hayotida, ularning kunlik iste'molida muhim ahamiyat kasb etganini ko'rib chiqdik. Endi esa aholi salomatligiga doimiy tarzda putur yetkazuvchi kasalliklar va jarohatlar hususida so'z yuritimiz.

Sopollitepa qabrlaridan topilgan odam suyak qoldiqlarini o'rgangan T.Xodjayov taxliliga ko'ra, jami 147 ta odam suyagidan ularning yoshi va jinsi aniqlangan. Bulardan 54 nafari 1-15 yoshgacha bo'lgan chaqaloq, yosh bola va o'spirinlar, 93 nafari 16 yoshdan yuqori kishilar. Yosh jihatdan taxlil shuni ko'rsatadiki, erkaklar ayollarga qaraganda biroz uzoq umr ko'rgan. Statistik taxlillar shuni ko'rsatdiki, Sopollitepada yosh bolalar o'limi katta miqdorni – 36,7 % ni tashkil etadi[2, b.148].

Yosh bolalar o'lim yoshi o'rtacha 5 yoshni, umumiy manzilgoh bo'yicha, 147 ta odam suyaklarini hisoblaganda esa o'rtacha umr 22,9 yilni tashkil etadi. Bunga asosiy sabablardan biri qilib, manzilgohda antisanitar holat mavjudligini ko'rsatish mumkin. Bu holat avvalo yosh bolalarning o'limiga olib kelgan. Qolaversa Sopolliteda ayollar juda erta turmushga chiqqan va 15-16 yoshda bola dunyoga keltirgan. Buni isboti sifatida 83, 99-qabrlarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur qabrlarda 13 dan 16 yoshgacha bo'lgan ayollarni katta yoshdagi 25-40 yoshli erkaklar bilan juft oila sifatida ko'milishidan kuzatishimiz mumkin. Ba'zida erkaklarning ham erta oila qurish holatlari kuzatilgan (67-qabr, 12-13 yoshli ayol va 14-15 yoshli erkak)[2, b.150].

Ma'lumki, Sopollitepa aholisi erkaklar o'rtacha 163,3 sm, og'irligi 55,2 kg, ayollar esa 155 sm, og'irligi 45,5 kg bo'lgan[2, b.150]. Sopollitepa aholisi kichik va jismoniy tomonlama baquvvat emasligi, aholi o'rtasida ko'p yillar davomida o'zaro qarindoshlar o'rtasida nikoh

munosabatlari saqlanib qolganligini ko'rsatish mumkin. Ammo Jarqo'tonda bu kuzatilmaydi. Chunki shimoldan kelgan aholi geografik jihatdan avval Jarqo'tonga kelgan degan fikrni muhokamaga qo'yish mumkin.

Qolaversa, Sopollitepa aholisi ayollari tug'riq jarayonida ham vafot etgan holatlar mavjud. 17-qabrda mazkur holat belgilari yaqqol ko'rinadi. Qabrga erkak va ayol bir davrda dafn etilgan bo'lib, ayolning qorin qismida yangi tug'ilgan chaqaloq suyaklari topilgan[1, b.57-58].

Boshqa bir sabab qilib, Sopollitepadagi antisanitar holat kuzatilganligi yuqumli epidemik kasalliklar ham ro'y berganligini ko'rsatish mumkin. 36-qabr ochib o'rganilganda jamoaviy tarzda 5 nafar yosh bolalar jasadlari birgalikda ko'milgan. Ularning 4 nafari 1-4 yoshgacha, 1 nafari 11-13 yosh bo'lgan [1, b.66].

Bundan tashqari irsiy, yoki orttirilgan kasallik va jarohatlar ham aholi salomatligiga katta xafv tug'dirgan. Sopollitepa aholisida asosan 3 turdagi yallig'lanish holatlari kuzatilgan: osteoporoz, gaymarid va osteomieliit kasalliklari. Yodgorlikdagi 4 - qabr skeletining quloq sohasida osteoporoz kassalligi aniqlangan. 22, 127 va 38 – qabrlarda gaymarid kassalligining turli darajalari suyakka ta'sir qilgan yiring izlari orqali o'rganilgan. Shuningdek, 5 ta qabrdan(54, 24, 50, 23 va 75) topilgan skeletlarning asosan jag' va tish sohalarida quyi darajadagi osteomieliit kassalligi, 22, 35-qabrlar skeletidan "umurtqa bifida" kassalligi, 93-qabrdan ikki tomonlama sakralizatsiya, Atrofiya kasalligi bilan ikki holatda bosh suyagida og'rish kuzatilgan (20 va 21-qabrlar). 4 dona bosh suyagida (75, 77 va 29 – qabrlar) distrofiya va gipertrofiya kassalliklari, 20 – qabr skeleti I va II umurtqalaridan osteofit kassalligi, 27 – qabr sketi bosh suyagida asimmetriya, umurtqasida esa skolioz, 75-qabr skeletidan ekzostoz kassalligi, 1024-qabr skeleti bosh suyagi tanglay qismida qo'shimcha tish mavjudligi kuzatilib, hatto 1027-qabr skeleti M1, M2 va yuqori M1 molyarlari ikki tomonida ham karabelli tuberklyoz kassalligi aniqlangan[17, b.124-126].

Suyakdagi kasalliklarni tekshirish davomida 157 ta skeletdan kam sonli suyak xastaliklarini aniqlanishi, Sopollitepa aholisida suyak bilan bog'liq muammolar nisbatan kam bo'lganini ko'rsatadi[14, b.95]. Jarohatlarga keladigan bo'lsak, 6 ta holatda suyaklarda jarohat aniqlangan (75, 99, 89, 54, 107, va 21-qabrlar) [14, b.92-93].

Bundan ko'rinib turibdiki, eneolit va bronza davrida aholi o'limi xususan, yosh bolalar o'limi ko'p bo'lgan[14, b.100]. O'rta Osiyo aholisining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi Sharqiy Yevropa aholisidan sezilarli darajada kam bo'lgan [6, b.7].

Jarqo'ton aholisi bilan Sopollitepa aholisi tana uzun suyaklarini solishtirganda shu narsa farq qilganki, Jarqo'ton erkak suyaklari 7, ayol suyaklari esa 4 sm. o'lcham bilan Sopollitepa aholisi uzun suyaklaridan uzunligi bilan ajralib turadi. Bu esa Jarqo'ton davriga kelib aholi yashash sharoiti bir muncha yaxshilanganini

ko'rsatadi[5, b.192]. Jarqo'tonda yosh bolalar o'limi 28,5 %ni tashkil etadi. Bu degani har uch yosh boladan biri vafot etganini ko'rsatadi. Ammo bu Sopollitepa (37%) va Altin-depe (40%)dan kam ko'rsatgichni tashkil etadi [5, b.310].

Molali davrida yosh bolalar o'limi oldingi bosqichlardan farqli o'laroq sezilarli darajada ortadi. Balki bu bosqichda qandaydir epidemiya tarqalishi tufayli kasallanish holatlari sodir bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Jarqo'tonda aholisi o'rtacha umr ko'rishi 30,6 yilni tashkil etib, shundan erkaklar o'rtacha umr ko'rishi sanasi 33 yil, ayollar 33,4 yilni ko'rsatadi[5, b.316-317].

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Sopolli madaniyati aholisi yashash turmush darajasi aholining yaratuvchanligi, rivojlarga shahar madaniyati sohibkorlari

bo'lishiga qaramay, qiyinligicha qolavergan. Ovqatlanishdagi notenglik, to'g'ri bo'lmagan ratsion, yetishmovchilik, antisanitar yashash sharoiti, o'rta darajadagi kunlik oqsil yetishmasligi, hamda doimiy uchrab turuvchi yuqimli, irsiy kasallik va jarohatlar aholining salomatlik darajasini yetarlicha quyiga tushiruvchi asosiy omillardan bo'lib qolavergan. Kelgusi tadqiqotlarda esa aholining osteologik manbalarini yanada mukammal o'rganish yordamida ulardagi boshqa kasalliklar, jarohatlar va ularni keltirib chiqaruvchi faktorlarni tadqiq etib, paleodietologik sohaga oid yangi manbalarni o'rganish belgilanganki, ushbu tadqiqotlar Janubiy O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan bronza davrining aholi manzilgohi o'choqlaridan biri bo'lgan Sopolli madaniyati yodgorliklari aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, qolaversa, ularning tibbiy darajasini yanada aniqroq o'rganish, rekonstruksiya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. – Ташкент. 1973.
2. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
3. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б. Н. Джаркутан. Ташкент. 1983.
4. А. Аскарлов, Жоу Синг, М. Хасанов. Производство тутового дерева и шелка, хлопка, садоводства и колосовых культур на юге Узбекистана в период древневосточной цивилизации Окса // Археология Узбекистана, № 21, Самарканд, 2020.
5. Алексеев В.П., Ходжайов Т., Халилов Х. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. Т., 1984.
6. Алексеев В.П. Палелдемография СССР, Москва. 1975
7. Батыров Б.Х. Фауна поселения Сапаллитепа // ИМКУ, выпуск 11. Ташкент, 1974.
8. Батыров А. Р. Фауна диких животных из памятников эпохи бронзы и раннего железа на юге Узбекистана // ИМКУ, выпуск 18. Ташкент, 1983
9. Батиров А.Р. Голоценовые домашние собаки Узбекистана. // ИМКУ, выпуск 32. Ташкент, 2001.
10. Батыров А.Р. Териофауна Узбекистана в Антропогене // Археология Узбекистана, № 1, Самарканд, 2010.
11. Зубов. А.А. Одонтология. Методика антропологических исследований, М., 1968.
12. Мустафакулов С, Х. Бендесу-Сармиенто, А. Мухаммадиев, Ж. Люлье, Э. Люно. Отчет о проведении полевых исследований международной археологической экспедиции на памятнике Джаркутан в 2007 году. Ташкент. 2007.
13. Халилов Х. Материалы к остеологической характеристике населения ИМКУ.

вып. 15. Ташкент. 1979.

15. Ходжайов Т.К. Антропологический состав населения эпохи бронзы Сапаллитепа. – Т., 1977.
16. Шайдуллаев Ш, Хуфф Д, Канют К, Тойфер М. Узбек-олмон экспедициясининг 1997-йилги хисоботи. Самарканд, 1998.
17. Guanhan Chen, Xinying Zhou, Mutalibjon Khasannov, Robert N. Spengler, Jian Ma, Tukhtash Annaev, Nasibillo Kambarov, Farhod Maksudov, Akhmadali Askarov & Xiaoqiang Li. Morphotype broadening of the grapevine (*Vitis vinifera* L.) from Oxus civilization 4000 BP, Central Asia. Scientific Reports. 2022
18. J. Bendezu-Sarmiento, M. Cervel, R.Vega. Mission archeologique Franco-Ouzbek au Surkhan-daria (mafac-Dzharkutan). Rapport final de la campagne 2009 (du 11 avril au 7 mai). État de conservation et étude anthropologique préliminaire des sépultures fouillées durant la campagne 2009 à Dzharkutan.
19. J. Bendezu-Sarmiento, S. Mustafakulov. Le site proto-urban de Dzharkutan Durant les ages du bronze et du fer. Recherches de la Mission archeologique franco-ouzbek-protohistoire. L'archeologie Francaise en Asie Centrale. Nouvelles recherches et enjeux socioculturels. IFEAC/DAFA. Paris, Bichkek, Kaboul. 2013.
20. M.Teufer, Spätbronzezeitliche Grabfunde aus Nordbaktrien und benachbarten Regionen. Studien zur Chronologie zwischen Aralsee und Persischem Golf. Archäologie in Iran und Turan 13. Berlin, 2015.
21. Naomi F. Miller. Agricultural development in western Central Asia in the Chalcolithic and Bronze Ages. Vegetation History and Archaeobotany © Springer-Verlag 1999.



Rasm-1.
Jarqo‘ton
3 qabristoni.
1072-qabr.
2023-yilgi qa-
zishma.
 Manba: Sh.Shay-
 dullayev, J.Lhuill-
 er. O‘zbekiston
 - Fransiya xalqaro
 arxeologik eks-
 pedititsiyasining
 2023-yilda Sur-
 xondaryo viloyati
 Sherobod tumani
 Jarqo‘ton yodgor-
 ligida olib borilgan
 arxeologik tad-
 qiqotlar hisoboti.
 Termiz. 2024.



Rasm-2. Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan urug‘lar radio uglerod C14 taxlili natijasi.

Manba: Guanhan Chen, Xinying Zhou, Mutalibjon Khasannov, Robert N. Spengler, Jian Ma, Tukhtash Annaev, Nasibillo Kambarov, Farhod Maksudov, Akhmadali Askarov & Xiaoqiang Li. Morphotype broadening of the grapevine (*Vitis vinifera* L.) from Oxus civilization 4000 BP, Central Asia. Scientific Reports. 2022.

“

Annotatsiya.

O'rta asrlar arxeologiyasida keng tarqalgan kulolchilik buyumlaridan biri simobko'zachalardir. Ushbu idishlar shakl nuqtai nazaridan boshqa sopol buyumlaridan farq qiladi. Mustahkan devorlari, kichik gardish og'zi, tag qismining o'ziga xos formalari shular jumlasidandur. Ularga nisbatan, nomlanishi va tuzilishi jihatidan doimo bir savol paydo bo'lgan. Simobko'zachalarning vazifaviy maqsadi nimadan iborat bo'lgan? Uzoq va bahsli munozaralarga sabab bo'lgan bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida, simobko'zachalarga oid bo'lgan bir nechta manbalar bilan tanishdik. Va ushbu maqolada, manbalar asnosida mazkur savolga qisman bo'lsada, yechim berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar:

Simobko'zachalar, yozma manbalar, "Ixtiyorat-i Badi'y", "Kitob al-Jamohir fi-Ma'rifat al-Javohir", mar-mar haykal, simob saqlash va dori darmon uchun idish.

